


GEPATIT B INFEKSIYASI: TARQALISHI, KLINIK KECHISHI VA PROFILAKTIKASI



Beshariq Abu Ali ibn Sino nomidagi

Jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi

Nomozova Gulasal Mamadjonovna


Annotatsiya:

Gepatit B — jigarni zararlovchi virusli infeksiyalardan biri bo'lib, butun dunyo bo'ylab keng tarqalgan. Maqolada gepatit B infeksiyasining etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinik kechishi, tashxislash usullari hamda zamonaviy profilaktika choralariga to'xtalinadi. Hamshiralik amaliyotida kasallikning oldini olishdagi roli alohida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Gepatit B, virusli hepatitis, immunizatsiya, profilaktika, yuqumli kasalliklar.

Kirish

Gepatit B virusi (HBV) – DNK tarkibli gepadnaviruslar oilsiga mansub bo'lib, asosan parenteral yo'l bilan yuqadi. Juhon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 296 millionga yaqin inson ushbu virus tashuvchisi hisoblanadi. Kasallik surunkali kechishga moyil bo'lib, siroz va jigar saratoni kabi og'ir asoratlarga olib keladi.



Asosiy qism

Etiologiyasi va patogenezi

ПРИЗНАКИ И СИМПТОМЫ ГЕПАТИТА



БОЛЬ В СУСТАВАХ

ДИСКОМФОРТ В ЖКТ,
ТЯжесть со стороны
брюшины

ОЩУЩЕНИЕ ТОШНОТЫ




ПОТЕРЯ ИЛИ СНИЖЕНИЕ АППЕТИТА



ПОЖЕЛАТЕНИЕ КОЖНОГО ПОКРОВА

HBV odam organizmiga tushgach, jigarda ko'payib, hepatotsitlarni zararlaydi. Organizmning immun javobi natijasida yallig'lanish jarayoni yuzaga keladi. Infektsiya o'tkir va surunkali shaklda kechishi mumkin.



Epidemiologiyasi

Gepatit B virusining asosiy yuqish yo'llari:

- Parenteral yo'l (qon, qon mahsulotlari bilan);
- Perinatal yo'l (ona–bola orqali);
- Jinsiy aloqa orqali;
- Maishiy yo'l (kam holatlarda, umumiy gigiyena vositalari orqali).

Xavf guruhiiga quyidagilar kiradi:


- Sog'liqni saqlash xodimlari;
- Gemodializ bemorlari;
- Narkotik moddalarni in'ektsiya yo'li bilan qabul qiluvchilar;
- HBV bilan zararlangan onalardan tug'ilgan bolalar.

Klinik kechishi

Gepatit B infeksiyasi uchta asosiy bosqichda kechadi:

1. Inkubatsion davr (2–6 oy);
2. O'tkir bosqich – isitma, holsizlik, ko'ngil aynish, jigar sohasida og'riq, sariqlik;
3. Surunkali bosqich – uzoq davom etuvchi belgilarsiz kechish, keyinchalik siroz va gepatosellyulyar karsinoma bilan asoratlashi mumkin.


Tashxis



- Serologik testlar (HBsAg, anti-HBs, anti-HBc, HBeAg);
- PCR orqali virus DNK sini aniqlash;
- Jigar faoliyatini baholovchi laborator tekshiruvlar (ALT, AST).

Profilaktika

- Spetsifik profilaktika: HBV ga qarshi emlash (uch bosqichli vaksina);
- Nospetsifik profilaktika: steril tibbiy asbob-uskunalardan foydalanish, xavf guruhlariga tarbiyaviy ishlar;
- Postekspozitsion profilaktika: virusga chalingan bemor bilan kontaktdan keyin immunoglobulin yuborish.



Xulosa

Gepatit B infeksiyasi nafaqat klinik jihatdan, balki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi. Uning oldini olishda tibbiyot xodimlarining, ayniqsa hamshiralarining roli katta. Yuqori xavf guruhlarini aniqlash, vaksina profilaktikasini keng joriy etish va aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish kasallik tarqalishini kamaytirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO). Hepatitis B: Key facts. 2024. <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/hepatitis-b>
2. Karimov M.X., To'rayev S.H. Yuqumli kasalliklar. O'zbekiston Tibbiyot Akademiyasi, Toshkent, 2022.
3. Nelson Textbook of Pediatrics. 21st Edition. Chapter: Hepatitis B Virus Infection. Elsevier, 2020.
4. Uzoqova D.M., Rasulov B.X. Infektion kasalliklar. – Toshkent: "Ilm ziyo", 2021.
5. CDC (Centers for Disease Control and Prevention). Hepatitis B Information. 2023. <https://www.cdc.gov/hepatitis/hbv>
6. Harrison's Principles of Internal Medicine. 20th Edition. Section: Liver and Biliary Tract Disease, McGraw-Hill, 2019.